O‘QUVChILARNI KRITIK FIKRLAShGA O‘RGATISh MEXANIZMI

Babasheva Gulzavira Bektemirovna – *pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, docent*
gulzavirababasheva@gmail.com
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

МЕХАНИЗМ ОБУЧЕНИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ

Бабашева Гульзавира Бектемировна – *доктор философии по педагогическим наукам, доцент*
Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

THE MECHANISM OF DEVELOPING CRITICAL THINKING IN STUDENTS

Babasheva Gulzavira Bektemirovna – *Associate Professor*
Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyoz

Tayanch so‘zlar: kritik fikrlash, tanqidiy tafakkur, pedagogik mexanizm, o‘quvchi, pedagogik texnologiya, muammoli ta’lim, dialogik ta’lim, refleksiya, metakognitsiya, mustaqil fikrlash.

Rezyume. Maqolada o‘quvchilarni kritik fikrlashga o‘rgatishning pedagogik-nazariy asoslari va uni amalga oshirish mexanizmlari tahlil qilingan. Kritik fikrlashning mazmun-mohiyati, tarkibiy komponentlari, rivojlantirish shart-sharoitlari hamda ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan samarali pedagogik metodlar yoritilgan. Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida o‘quvchilarni kritik fikrlashga o‘rgatishning motivatsion, mazmuniy, operatsion-faoliyatli, refleksiv va baholash komponentlaridan iborat pedagogik mexanizmi taklif etilgan.

Ключевые слова: критическое мышление, критическое мышление учащихся, педагогический механизм, учащийся, педагогическая технология, проблемное обучение, диалогическое обучение, рефлексия, метакогниция, самостоятельное мышление.

Резюме. В статье проанализированы педагогико-теоретические основы обучения учащихся критическому мышлению и механизмы его реализации. Раскрыты сущность, структурные компоненты, условия развития критического мышления, а также эффективные педагогические методы, применяемые в учебном процессе. На основе анализа научной литературы предложен педагогический механизм формирования критического мышления у учащихся, состоящий из мотивационного, содержательного, операционно-деятельностного, рефлексивного и оценочного компонентов.

Summary. The article analyzes the pedagogical and theoretical foundations of teaching critical thinking to students and the mechanisms of its implementation. It highlights the essence, structural components, conditions for development of critical thinking, as well as effective pedagogical methods used in the educational process. Based on the analysis of scientific literature, a pedagogical mechanism for developing critical thinking in students is proposed, consisting of motivational, substantive, operational-activity, reflexive, and evaluative components.

Key words: critical thinking, students’ critical thinking, pedagogical mechanism, student, pedagogical technology, problem-based learning, dialogic learning, reflection, metacognition, independent thinking.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning mustaqil va kritik fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ta’limning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Axborot hajmining jadal sur’atlarda ortib borishi o‘quvchidan ma’lumotni shunchaki eslab qolishni emas, balki uni tahlil qilish, baholash, ishonchli va ishonchsiz ma’lumotni farqlash, dalillarni solishtirish hamda asoslangan xulosa chiqarishni talab etmoqda.

Kritik fikrlash tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turlicha izohlangan bo‘lsa-da, uning asosida ma’lumotni tahlil qilish, baholash, xulosa chiqarish va o‘z qarorini asoslash kabi kognitiv jarayonlar yotadi. P.Abrami va hammualliflari kritik fikrlashni maqsadga yo‘naltirilgan va o‘zini boshqaruvchi hukm chiqarish jarayoni sifatida tavsiflaydi hamda uning rivojlanishida maxsus tashkil etilgan ta’limning ijobiy ta’sirini meta-tahlil asosida ko‘rsatib beradi [1].

Kritik fikrlashni shakllantirish masalasi nafaqat oliy ta’lim, balki umumiy o‘rta ta’lim uchun ham muhimdir. O‘quvchining kichik yoshdan boshlab savol berish, dalil izlash, turli qarashlarni taqqoslash va o‘z fikrini asoslashga o‘rganishi keyingi ta’lim bosqichlarida mustaqil fikrlashning rivojlanishi uchun zamin yaratadi.

Shu jihatdan, o‘quvchilarni kritik fikrlashga o‘rgatish mexanizmini pedagogik jarayonning alohida komponentlari emas, balki o‘zaro bog‘langan yaxlit tizimi sifatida ko‘rib chiqish muhimdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega. Tadqiqotning metodologik asosini kritik fikrlash, pedagogik texnologiyalar va o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqotlarning tahlili tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tizimlashtirish, pedagogik modellashtirish va nazariy sintez metodlaridan foydalanildi.

Kritik fikrlashni o‘qitish samaradorligiga bag‘ishlangan Abrami va hammualliflarining meta-tahlili 341 ta ta’sir ko‘rsatkichini o‘z ichiga olgan bo‘lib, tadqiqotchilar kritik fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan turli strategiyalarning ijobiy ta’sirini aniqlagan [1].

Niu, Behar-Horenstein va Garvan tomonidan o‘tkazilgan meta-tahlilda esa oliy ta’limdagi kritik fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik aralashuvlar o‘rganilgan. Mualliflar umumiy ta’sir statistik jihatdan ahamiyatli ekanini, biroq uning darajasi tadqiqotlar va ta’lim sharoitlariga qarab farqlanishini ko‘rsatgan [8].

Tiruneh, Verburgh va Elen tomonidan 33 ta empirik tadqiqot asosida o‘tkazilgan tizimli sharhda kritik fikrlashni rivojlantirish samaradorligiga o‘qitish strategiyasi, o‘quv muhiti, o‘quvchilarning boshlang‘ich tayyorgarligi va baholash vositalari ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan [9].

Natijalar. Tadqiqot natijasida o‘quvchilarni kritik fikrlashga o‘rgatish mexanizmining besh asosiy komponentdan iborat modeli ishlab chiqildi:

Motivatsion komponent → Mazmuniy komponent → Operatsion-faoliyatli komponent → Refleksiv komponent → Baholash komponenti.

Motivatsion komponent. Mazkur komponent o‘quvchilarda muammoni o‘rganishga qiziqish va ehtiyojni shakllantirishga xizmat qiladi. Buning uchun dars jarayonida muammoli vaziyat, qarama-qarshi fikr yoki hayotiy vaziyatdan foydalanish maqsadga muvofiq.

Masalan, o‘qituvchi o‘quvchilarga: “Ushbu fikrga qanday dalillar asos bo‘la oladi?”, “Boshqa nuqtayi nazar mavjud bo‘lishi mumkinmi?”, “Qaysi xulosa ishonchliroq va nima uchun?” kabi savollarni berishi mumkin.

Bunday savollar o‘quvchini tayyor javobni qabul qilishdan ko‘ra, uning asoslarini izlashga undaydi.

Mazmuniy komponent. Kritik fikrlashni rivojlantirish uchun o‘quv materiali ham tegishli tarzda tanlanishi zarur. O‘quvchiga faqat bitta to‘g‘ri javobni talab qiladigan reproduktiv topshiriqlar berish bilan kritik fikrlashni to‘liq shakllantirish qiyin.

Shuning uchun o‘quv materiallariga muammoli savollar, turli nuqtayi nazarlar, qarama-qarshi dalillar, real hayotiy vaziyatlar va ochiq topshiriqlarni kiritish maqsadga muvofiq.

Operatsion-faoliyatli komponent. Bu komponent o‘quvchining kritik fikrlash operatsiyalarini amaliy faoliyatda bajarishini nazarda tutadi.

Bunda quyidagi metodlardan foydalanish mumkin: muammoli ta’lim; Sokratik savol-javob; munozara va debat; keys-stadi; loyiha metodi; kichik guruhlarda ishlash; taqqoslash va tasniflash; konseptual xaritalar; dalillar jadvali; “aqliy hujum”; tengdoshlarning fikr-mulohazasi.

Abrami va hammualliflarining tadqiqotida ayniqsa dialog, autentik yoki real vaziyatlarga yaqin muammolar va pedagogik qo‘llab-quvvatlash kritik fikrlashni rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan [1].

Kritik fikrlashni bevosita va aniq o‘rgatish masalasiga bag‘ishlangan tizimli sharhda ham explicit instruction, ya’ni kritik fikrlash ko‘nikmalarini maqsadli ravishda o‘rgatish istiqbolli yondashuv sifatida ko‘rsatilgan [4].

Refleksiv component. Kritik fikrlash o‘quvchining o‘z fikrini qayta ko‘rib chiqish va uning qanday shakllanganini anglash qobiliyatini ham nazarda tutadi.

Shu sababli dars yakunida quyidagi refleksiv savollardan foydalanish mumkin:

Men bugun qanday xulosaga keldim?, Ushbu xulosaga qanday dalillar asos bo‘ldi?, Dars boshidagi fikrim o‘zgardimi?, Mening fikrimni o‘zgartirgan dalil qaysi? ,Muammoning yana qanday yechimi bo‘lishi mumkin?, Men yana qanday ma’lumotni izlashim kerak?

Bunday savollar o‘quvchining metakognitiv faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Baholash komponenti. Kritik fikrlashni baholashda faqat yakuniy javob emas, balki o‘quvchining unga qanday kelgani ham hisobga olinishi lozim.

Shu asosda baholash mezonlari quyidagicha belgilanadi: muammoni tushunish; dalillarni aniqlash; dalillarning ishonchliligini baholash; turli nuqtayi nazarlarni taqqoslash; Mantiqiy xulosa chiqarish; o‘z fikrini asoslash; o‘z fikrlash jarayonini refleksiya qilish.

Muhokama. Ilmiy adabiyotlar tahlili kritik fikrlashni rivojlantirish uchun faqat bitta pedagogik metoddan foydalanish yetarli emasligini ko‘rsatadi. Kritik fikrlashning samarali shakllanishi ta’lim mazmuni, pedagogik strategiya, o‘quv muhiti va baholashning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq [9].

Niu va hammualliflarining meta-tahlilida ham pedagogik aralashuvlarning samaradorligi bir xil emasligi, ta’sir ko‘rsatkichlari o‘quv fanlari va ta’lim davomiyligiga qarab farqlanishi qayd etilgan [8].

Shu nuqtayi nazardan, kritik fikrlashni alohida “dars” sifatida emas, balki barcha fanlarni o‘qitish jarayoniga integratsiya qilinadigan kompetensiya sifatida ko‘rish maqsadga muvofiq.

Masalan, tarix darsida o‘quvchilar tarixiy manbalarni taqqoslashi; biologiyada ilmiy dalillarni tahlil qilishi; ona tili va adabiyotda muallif nuqtayi nazarini baholashi; matematika fanida turli yechimlarni solishtirishi mumkin.

Kritik fikrlashni rivojlantirishda o‘qituvchining roli ham o‘zgaradi. O‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchining fikrlash jarayonini tashkil etuvchi va yo‘naltiruvchi pedagog sifatida faoliyat yuritishi kerak.

Bunda o‘qituvchi o‘quvchiga tayyor xulosani berish o‘rniga, xulosaga olib boradigan savollarni qo‘yadi. Masalan: “Buni qayerdan bildingiz?”, “Bunga qanday dalil bor?”, “Bu fikrga qarshi qanday dalil keltirish mumkin?”, “Agar shart o‘zgarsa, xulosa ham o‘zgaradimi?”. Bunday savollar o‘quvchining fikrlash jarayonini faollashtiradi.

Shuningdek, kritik fikrlashni rivojlantirishda o‘quvchilarning xatoga munosabati ham muhim. Xato fikrni darhol rad etish o‘rniga, uning qanday shakllanganini tahlil qilish o‘quvchining fikrlash jarayonini chuqurlashtiradi.

Xulosa. O‘quvchilarni kritik fikrlashga o‘rgatish zamonaviy pedagogika nazariyasining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Kritik fikrlash o‘quvchining axborotni tahlil qilishi, dalillarni baholashi, turli nuqtayi nazarlarni taqqoslashi, asoslangan xulosa chiqarishi va o‘z fikrini himoya qila olishini ta’minlaydi.

O‘quvchilarni kritik fikrlashga o‘rgatishning besh komponentli pedagogik mexanizmi (motivatsion, mazmuniy, operatsion-faoliyatli, refleksiv va baholash komponentlari)ning samarali ishlashi uchun ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish, ochiq savollardan foydalanish, munozara va dialogni tashkil etish, o‘quvchilarning mustaqil izlanishlarini qo‘llab-quvvatlash hamda refleksiv va formativ baholashni yo‘lga qo‘yish zarur.

Shunday qilib, kritik fikrlashni shakllantirish o‘quvchiga tayyor bilimlarni berishdan faol bilim olish, tahlil qilish va asoslangan qaror qabul qilishga o‘tishni anglatadi. Mazkur yondashuv o‘quvchilarning nafaqat akademik faoliyatini, balki kundalik hayotda mustaqil va mas’uliyatli qaror qabul qilish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Adabiyotlar

1. Abrami P.C., Bernard R.M., Borokhovski E., Waddington D.I., Wade C.A., Persson T. Strategies for teaching students to think critically: A meta-analysis. // Review of Educational Research, 2015, 85(2). – P. 275-314.

2. Berdiyeva Z.P. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik asoslari. Ilmiy maqolalar to‘plami. // Zamonaviy ta’lim jurnali, 2021-2023-yillar.

3. G‘oziyev E.G‘. Tafakkur psixologiyasi. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2011. (Inson tafakkurining shakllanishi, muammoli vaziyatlar va tahliliy yondashuvlarning psixologik asoslari).

4. Heijltjes A., Van Gog T., Paas F. Improving students’ critical thinking: Empirical support for explicit instructions combined with practice. // Applied Cognitive Psychology, 2015, 29(4). – P. 518-530.

5. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va amaliyot asoslari. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2017. (Shaxsning axborotni qabul qilish, uni tanqidiy baholash va ijtimoiy tafakkur xususiyatlari).

6. Mavlonova R., Vohidova N., Rahmonqulova N. Pedagogika. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2018. (Ta’lim jarayonida o'quvchilarning tanqidiy tafakkurini o'stirishning pedagogik shart-sharoitlari).

7. Muslimov N.U., Usmonboyeva M.X., Sayidahmedov N.S., To‘rayev A.B. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –Toshkent: O‘zbekiston fayziyillari nashriyoti, 2015. (Talabalarda mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interfaol usullari).

8. Niu L., Behar-Horenstein L.S., Garvan C.W. Do instructional interventions influence college students’ critical thinking skills? A meta-analysis. // Educational Research Review, 2013, 9. – P. 114-128.

9. Tiruneh D.T., Verburgh A., Elen J. Effectiveness of critical thinking instruction in higher education: A systematic review of intervention studies. // Higher Education Studies, 2014, 4(1). – P. 1-17.

10. Tolipova J.O. Biologiya ta‘limida o‘quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish metodikasi. Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: 2014.